

O‘ZBEKISTON ICHKI TURIZM SOHASINING YURTIMIZDAGI HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Sanaqulova Parinoz

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti 3 kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Nurmatova Sitara

Annotatsiya: *Ma'lumki, turizm eng ko'p daromad keltiradigan sohalardan biri hisoblanadi. Uni rivojlanishi esa yurtni obod, xalqni esa boy qiladi. Ushbu maqolada O'zbekiston ichki Turizm sohasining yurtimizdagi holati va uni rivojlantirish istiqbollari haqida so'z yuritilgan*

Kalit so'zlar: *Yoshlar turizmini rivojlantirish, konsepsiya, loyiha, ichki turizm, turistlar oqimi, Pandemiya, hordiq xarajati, xostellar, mehmonxonalar, dam olish zonalari, sayohat.*

KIRISH

Turizm (fransuzcha: *our* — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiyamaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Ichki turizm esa - har qanday mamlakat aholisining o'z mamlakatida qilgan sayohatlari. Turizmning bu turining asosiy xususiyati daromadlarni mamlakat hududlari o'rtasida qayta taqsimlash va milliy iqtisodiyotni rag'batlantirish (kapital mamlakatdan tashqariga chiqarilmaydi, balki uni rivojlantirish uchun ishlatiladi); Turizmning tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan (1815). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk⁶¹1843-yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so'ng u o'zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruxlari AQShga jo'natildi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta⁶²21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi. Hozirgi davrda Turizm dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatda, Turizm turizm tashkilotlari orqali turizm marshrutlari bo'yicha uyushtiriladi. Turizmning juda ko'p turlari va shakllari mavjud (ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar). O'zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi (27-iyul, 1992-yilda

⁶¹ Tomas Kuk-Birinchi sayyohlik temir yo'l tashkil qiladi.

⁶² Ibn Battuta-21 yoshda shimoliy sharqiy afrikani piyoda sayohat qilgan sayyoh.

tuzilgan) olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasi rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yoʻnalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish va boshqalardan iborat. "Oʻzbekturizm" milliy kompaniyasi sayohat qilish turiga qarab quyidagi turistik yoʻnalishlarni ishlab chiqqan: klassik⁶³ yoʻnalish (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent; Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent). Bu yoʻnalish eng qadimiy yodgorliklar va boshqa tarixiy madaniy obidalarga tashrif bilan bogʻliq; ekologik turizm yoʻnalishi (Chimyon, Chorvoq dam olish va davolanish oromgohi, Zomin qoʻriqxonasi, Buxoro viloyatidagi qoʻriqxonalar). Bu yoʻnalish alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va sayyohlar uchun ekologik jihatdan qulay hamda foydali hisoblanadigan joylarga tashrif bilan bogʻliq; arxeologik turizm yoʻnalishi (Qoraqalpogʻiston, Surxondaryo, Samarqand hududlari boʻylab). Bu yoʻnalish Oʻzbekistonning eng qadimiy topilmalari va arxeologik qazishmalar olib borilayotgan joylari bilan tanishishni maqsad qilib qoʻyadi; ekstremal⁶⁴ turizm yoʻnalishi (Chimyon, Fargʻona vodiysi, Orol boʻyi, Buxoro, Navoiy viloyati hududlari boʻylab); sayohatlarni oʻz ichiga oladi. Maʼlumki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yilda "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarori imzolandi. Yurtimizda soʻnggi yillarda ichki turizm oʻsib bormoqda, mahalliy aholi oʻz mamlakati bilan tanishayotgani koʻpaymoqda. Oʻzbekiston oʻzining boy tarixidan tortib, tabiiy goʻzalligi va joʻshqin madaniyatigacha koʻp narsaga ega mamlakat.

ASOSIY QISM

Rasmiy statistikaga koʻra, Soʻnggi yillar davomida Oʻzbekistonga xorijdan kelayotgan sayyohlar oqimi sezilarli oshishi kuzatildi. Ammo bunday salmoqli oʻsish ichki turizmga kuzatilayotgani yoʻq. Bunga sabab aholi daromadlari pastligimi, hukumatning ichki turizmga eʼtibori yetarli emasligimi yoki boshqa sabablar bormi? Pandemiya sharoitida xorijdan turistlar oqimi kamayishi shubhasiz. Shunday sharoitda ichki turizm inqirozning soha obektlariga taʼsirini yumshatishda qoʻl kelishi mumkin. Ammo taʼkidlash kerakki, aholining aksar qismida mamlakat boʻylab sayohat qilish ishtiyoqini yuqori deb boʻlmaydi. 2019 yilda Oʻzbekistonda ichki turizm salmogʻi 14 mln 748 ming kishini tashkil etgan. Bu raqamlar rivojlangan davlatlarda ham foydalaniladigan hisoblash metodologiyasiga asoslab chiqarilgandir balki, ammo baribir mazkur statistika real holatni koʻrsatayotganiga ishonish qiyin. Mamlakatimiz aholisining yarmidan koʻpini yoshlar tashkil etib, oʻtgan yilning kuzida qabul qilingan prezident farmonida ularni sayohat qilishga ragʻbatlantirish boʻyicha vazifalar belgilangandi. Shu farmonga asosan, Yoshlar turizmini rivojlantirish konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqilib, oʻtgan yilning dekabr va shu yilning fevral oylarida muhokamaga qoʻyildi. Ammo haligacha konsepsiya tasdiqlanganicha yoʻq. Biz ichki

⁶³ Klassik-3ta yonalish boʻyicha sayohat qilish (Buxoro, Samarqand, Xiva)

⁶⁴ Ekstremal-Malum darajada xavli boʻlgan turizm.

turizm, xususan yoshlar sayyohligi darajasi yuqori emasligi masalasida jamoatchilik vakillari fikrlari bilan qiziqdik.«Nega Bo‘stonliqda yoki Zominda 1 haftalik hordiq xarajati Antaliya yoki Tailanddagi 1 haftalik hordiq xarajatidan qimmatga tushyapti?»Bu haqida iqtisodchi, bakiroo Telegram-kanali muallifi Otabek Bakirov shunday deydi:“Ichki turizmni rivojlantirishga asosan byurokratik qarorlar chiqarish bilan turtki berishga urinishlar sezilyapti. Masalan, Navro‘z va Yangi yil arafasida Havo yo‘llari va Temir yo‘llari chegirmalar beryapti, yirik ish beruvchilar raznaryadka bo‘yicha xodimlari uchun tarixiy shaharlarga sayohatlar uyushtiryapti va boshqalar. Lekin topshiriq va direktivalar bilan ichki turizm ko‘lami kengayib qolmaydi.Nega Bo‘stonliqda yoki Zominda 1 haftalik hordiq xarajati Antaliya yoki Tailanddagi 1 haftalik hordiq xarajatidan qimmatga tushyapti? Shu haqda o‘ylash kerak.Albatta, bu degani yana ahmoqona topshiriq berib, xarajatlarni kamaytirish kerak, degani emas. Nega xostellar, mehmonxonalar, dam olish zonalari egalari bir mavsumdayoq xarajatini chiqarib olishga xarakat qilishadi? Chunki ertangi kuniga zarracha ishonchi yo‘q. Istalgan zo‘ravon hokim yoki vazir ularning mulk huquqiga daxl qilishi mumkin.Bizda odamlar bir joydan ikkinchi joyga sayohat qilishni uncha istashmaydi. Sababi nima? Birinchidan, o‘zbek xalqining o‘troqligi uni tarixan va ayniqsa oxirgi asrlarda asosan dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgani bilan bog‘liq. Dehqon yashaydigan joyidan uzoqqa uzilib ketolmaydi, uning avlodlari ham.Ikkinchidan, sayohat urf bo‘lmaganiga yana bitta sabab – turmush darajasi va daromadlarning o‘ta pastligi. Sayohat qachon qorin to‘q, ust but, boshpana bo‘lsagina ko‘ngilga sig‘adi.Uchinchidan, butun dunyoda sayohatchilarning aksari pensionerlardir, chunki pensiya tizimi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan mamlakatlarda pensionerlar eng barqaror va to‘q qatlam hisoblanadi. Shuning uchun ular o‘zlariga yiliga 3-4 oylab sayohatni lozim ko‘ra olishadi. Bizda-chi? Bizda pensiyaga chiqqan odam qaramlikka mahkum etiladi, yashash minimumiga yetmaydigan pensiya bilan sayohat haqida o‘ylash mumkinmi?Vaziyat birdaniga yaxshilanib qolmaydi, bunga yillar kerak. Ichki turizm ko‘rsatkichlarining o‘sishi aholi daromadlari o‘sishi ko‘rsatkichlaridan o‘sib keta olmaydi. Buni tan olish kerak.Yoshlar turizmi haqida aytish kerakki, bu asosan, ta'lim tizimi bilan bog‘liq. Yoshlar ta'lim olish uchun bir joydan ikkinchi joyga ko‘chadi va harakatlanadi. Asosiy o‘quv maskanlari Toshkentda joylashgani uchun yillar davomida yoshlarni imkon boricha tug‘ilgan viloyati doirasidagi OTMLarida o‘qishini tashkil etishga urinishlar bo‘lgani, davom etayotgani uchun yoshlar turizmining yo‘qligidan hayratlanmaslik kerak.O‘zbekistonda barcha o‘quv muassasalarida 5 kunlik o‘qish tizimi joriy etilishi mumkin«Biz Ichan Qal’ani hatto yuqoridan suratga olib, YouTube`ga ham qo‘ya olmaymiz»«Ular loyihasi muallifi Laziz Hamidov ham bu borada shunday degandi:— Inson nima uchun sayohat qiladi? Sayohat, birinchi navbatda, solishtirish imkonini beradi. Umrida bir dona kitob o‘qigan inson barcha joyda eng yaxshi kitob sifatida ushbu kitobni ko‘rsatadi. Aslida bunday emas-ku. Biz yashayotgan qoidalar boshqa joylarda umuman boshqacharoq, unumliroq bo‘lishi

mumkin. Buni bilish uchun siz albatta sayohat qilishingiz, borib ko'rishingiz, solishtirishingiz kerak. Agar imkoniyatingiz bo'lmasa, O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling: chekka hudud, qishloq, ovullarda insonlar qanday yashayotganini ko'ring. Bu mulohaza qilishingizga, qandaydir xulosalar chiqarishingizga yordam beradi. Ikkinchi navbatda, sayohat insonni ruhlantiradi, yangi qon beradi, atrofga yangicha qaray boshlaydi, nimalarnidir o'zgartirishga harakat qiladi. Hukumat ichki turizmga qay darajada e'tibor qaratayotgani masalasiga kelsak. O'tgan yili Tbilisi – Batumi yo'nalishida poyezdda borishga qaror qildik. Biz 5 kishi edik. Vokzalga borib, chipta olish uchun elektron navbat oldim. Navbatim kelgach, 5 kishining pasportini yig'ib, kassaga bordim. Kassir faqat o'zinning pasportimni so'radi va darrovgina nomimga borish va qaytish uchun 5ta chiptani rasmiylashtirib berdi. Endi o'ylab ko'ring: sayyohlik mavsumida Afrosiyob poyezdiga Toshkentdan Samarqandga chipta olish qanchalik azob ekanini tasavvur qiling. Demak, turizmda transportning o'rnini ko'tarish uchun hech narsa qilinmayapti, degan xulosadaman. Ikkinchi masala shaxsan men uchun og'riqli holat – dronlarni umuman ishlatish mumkin emasligidir. YouTube'ga kirib istalgan 4-5 shahringiz haqida yaxshi kontentni tomosha qilsangiz, birortasi dronlarsiz suratga olinmaydi. Rivojlangan davlatlarda dronlar orqali maxsulot yetkazib berish xizmatlarini yo'lga qo'yishmoqda. Biz esa Ichan Qal'ani yuqoridan suratga olib, YouTube'ga qo'ya olmaymiz. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov jurnalist Nikita Makarenkoga bergan intervyusida mamlakatni chetda taniqli qilish uchun 10 milliard ajratilishi haqida gapirgan. Savollar tug'iladi: qanday taniqli qilishmoqchi, qanday loyihalarga yo'naltirishadi? Masalan, shu pulni turizm rivojlangan hududlarda infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirish to'g'riroq emasmi? Yana bir masala: bizda shaharlarga sayohat qilish targ'iboti juda sust olib boriladi. Biror joy haqida video, maqolani o'qib o'sha yerga borish istagi paydo bo'ldi, deb aytolmaysiz. Aziz Abduhakimov: «Nega andijonlik talaba yozda Toshkentga kelib ishlashi yoki sayohat qilishi mumkin emas?» «Sayohat qilmasligimiz sababi materializmga berilib ketganimizdir» Xorijga sayohatga ketgandan ko'ra, shu pulga avtomobil yoki ozroq pul yig'ib uy olsam, deymiz. Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya fuqarolarining aksariyati ijarada yashashadi. Uy olishga ularning qurbi yetadi, lekin bunday qilmasliklari sababi bor. Ma'lum hududda uyga ega bo'lish insonni bir joyga bog'lab qo'yishi, materializmga berilib ketishiga olib keladi, deb hisoblanadi. Biz o'troq xalq bo'lganimiz uchun ham bir joyda muqim qolishni afzal bilamiz. Sayohatga sarf-xarajat sifatida qaraymiz. Sarflangan pul inson kapitali uchun investitsiya bo'lib xizmat qiladi. Sayohat ortidan qancha tajriba, bilim orttiriladi. O'zbekistonda 8600dan ortiq tarixiy obidalar joylashgan hududlar bor. Xiva, Buxoro, Samarqandni ko'pchilik biladi. Tog'li, cho'l hududlarda ham ko'rishga arzigulik joylar borligidan hamma ham xabardor emas. Odamlar bilmasligiga ularning o'zlari ham aybdormas. Bu hududlar haqida ma'lumotlar juda kam. Targ'ibot ishlari juda sust darajada olib borilyapti. O'zbekistonda ichki turizm, yoshlar turizmiga nisbatan ikkinchi darajali

sifatida qaraladi. Asosiy turizm o'rnini bosadigan emas, balki yordamchi turizm deb bilishadi. Chunki mahalliy va xorijiy sayyoh turlicha mablag' sarflaydi. To'g'ri, qayerdan ko'p daromad kelsa, o'sha yerga e'tibor berish kerak. Bu bozor iqtisodiyoti. Mana, hozir pandemiya sharoitida, chegaralar yopiqligini hisobga olib, ichki turizm imkoniyatlarini oshirishga e'tibor qaratilsin. Karantin sharoitida odamlarning moliyaviy imkoniyatlari sayohat qilishga xalaqit berayotgan bo'lishi tabiiy. Shuni hisobga olib, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi chegirmali tur paketlar taklif qilsa yaxshi bo'lardi. Hozir talabalar ta'tilda ekanini hisobga oladigan bo'lsak, ularga mos keladigan sayohat paketlari ishlab chiqilsa va targ'ibot ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

XULOSA

Ichki turizm imkoniyatlari ko'p, lekin ko'p hollarda samarasiz tashviqot tadbirlari va ba'zida chipta narxlariga chegirma e'lon qilish bilan cheklanib qolinayotgandek. Biz Antaliya, Tailand, Maldiv orollari, Issiqko'l haqida oz bo'lsa-da, nimalarnidir bilamiz. Lekin Boysun tog'lari, Shohimardon tabiati haqida-chi? Pandemiya qadar O'zbekistonga xorijlik sayyohlar oqimi ortib borgani quvonarli, ammo shuning barobarida ichki turizmni rivojlantirishga ham e'tiborni oshirish maqsadga muvofiq. Ichki turizm soyada qolib ketayotgani uchun «turizm» deganda faqat boy, o'ziga to'q odamlar qurbi yetadigan zavqli mashg'ulot sifatida tasavvur shakllangan. Vaholanki, sayohat zavqli odatga, madaniy xordiq chiqarish ehtiyojiga aylanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Travel and Tourism Economic Impact 2019. <https://www.wttc.org><https://www.slovenia.info/uploads/dokumenti/raziskave/raziskave/world2019.pdf> (2019 yil mart)
2. World travel and Tourism Council.org. <https://wttc.org/Research/Economic-Impact>
<https://www.slovenia.info/uploads/dokumenti/raziskave/raziskave/world2019.pdf>
3. Travel and Tourism Economic Impact 2019. pdf(2019 yil mart)
4. Global Economic Impact and Trends 2020. <https://wttc.org/Portals/0/Documents/Reports/2020/Global%20Economic%20Impact%20Trends%202020.pdf?ver=2021-02-25-183118-360>
5. <https://kun.uz/uz/news/2018/01/02/uzbekistonda-turizm-kaj-avolda-va-unirivozlantiris-ucun-nimalar-kilis-kerak-mutahassis-takliflari>
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Turizm>